



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O'RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026

“BIBI SESHANBA” ZIYORATGOHI NOMINING LINGVISTIK VA
LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI
“LINGUISTIC AND LINGUOCULTURAL FEATURES OF THE NAME OF
THE ‘BIBI SESHANBA’ PILGRIMAGE SITE”

Maqsudova Feruza Jo‘ravoy qizi

Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti

feruzaxonmaqsudova72@gmail.com

ORCID ID:0009-0001-0058-3985

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2026./PMJT6627

Annotatsiya. Mazkur maqolada “Bibi Seshanba” ziyoratgohi nomi lingvistik va lingvokulturologik jihatdan tahlil qilinadi. Nom tarkibidagi leksik birliklarning etimologik manbalari, grammatik tuzilishi hamda ularning xalq e’tiqodi va madaniy an’analar bilan bog‘liqligi yoritiladi. Tadqiqot jarayonida ziyoratgoh nomining onomastik birlik sifatida shakllanishi, uning semantik va madaniy ahamiyati haqida so‘z boradi. Tahlil natijalari “Bibi Seshanba” nomining xalqona diniy tasavvurlar, ayollar bilan bog‘liq marosimlar va madaniy xotira tizimida muhim o‘rin egallashini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Bibi Seshanba, ziyoratgoh nomlari, onomastika, lingvokulturologiya, etimologiya, xalq e’tiqodi, madaniy xotira.

Annotation. This article provides a linguistic and linguocultural analysis of the name of the “Bibi Seshanba” shrine. The etymological origins of the lexical components, their grammatical structure, and their connection with folk beliefs and cultural traditions are examined. The study identifies the formation of the shrine name as an onomastic unit and reveals its semantic and cultural significance. The results demonstrate that the name “Bibi Seshanba” occupies an important place in folk religious perceptions, women-centered rituals, and the system of cultural memory.

Keywords: Bibi Seshanba, shrine names, onomastics, linguoculturology, etymology, folk belief, cultural memory.

Toponimika yunoncha topos – joy va onoma(yoki onima) – nom so‘zlaridan tarkib topgan. [Qorayev,2006:5]. U tilshunoslikning joy nomlarini o‘rganuvchi sohasi bo‘lib, u xalqning tarixiy xotirasi, madaniyati, diniy e’tiqodlari va ijtimoiy hayoti bilan chambarchas bog‘liqdir. Ayniqsa, qadamjo nomlari alohida ahamiyat kasb etadi. Qadamjolar nafaqat muqaddas ziyorat maskanlari, balki xalqning kasallikni aniqlash, shifo izlash, narsa va qurollarga ramziy ma’no yuklash kabi qadimiy qarashlarini aks ettiradi. O‘zbek xalqining og‘zaki ijodi, diniy e’tiqodlari va an’analarida kasallik va shifo tushunchalari markaziy o‘rin tutgan. Shu boisdan ko‘plab qadamjo nomlari davolanish, duo, muqaddas buyumlar, payg‘ambarlar, avliyolar yoki tabiat unsurlari bilan bog‘liq holda shakllangan.



Qadamjo so'zi o'zbek tilining izohli lug'atida ziyorat qilish uchun boriladigan, mo'jizali, muqaddas joy deb izohlangan bo'lib, avliyo, payg'ambar yoki muqaddas shaxs qadam bosgan deb e'tirof etilgan maskanlarni anglatadi. Qadamjolar ko'pincha ziyoratgoh sifatida e'zozlanadi va ularning nomlanishi xalq tasavvuri, diniy qarashlari hamda real voqealiklar bilan bog'liq bo'ladi. Toponimik jihatdan qadamjo nomlari kasallikdan forig' bo'lish, shifo topish, muqaddas buyumlar, afsonaviy voqealar, tabiat unsurlari asosida shakllanadi. Ayniqsa, kasallik va shifo bilan bog'liq qadamjo nomlari xalq tabobati va diniy qarashlarning uyg'unlashuvi natijasidir. Kasallik bilan bog'liq qadamjo nomlari asosan ma'lum bir darddan xalos bo'lish maqsadida ziyorat qilinadigan joylarga nisbatan qo'llanadi. Xalq ongida kasallik ko'pincha diniy jihatdan talqin qilinib, ilohiy yuborilgan sinov yoki ruhiy muvozanat buzilishi sifatida tushuniladi.

Markaziy Osiyoning qadimiy madaniyat o'choqlaridan biri bo'lgan Farg'ona vodiysi hududida xalqning diniy e'tiqodlari, an'anaviy tabobati va og'zaki ijodi o'ziga xos tarzda shakllangan. Ayniqsa, qadamjo va ziyoratgohlar Farg'ona vodiysi aholisi hayotida muhim o'rin tutadi. Ushbu qadamjolar nomlarida xalqning kasallik haqidagi tasavvurlari, shifo topishga bo'lgan ishonchi hamda muqaddas buyum va qurollarga bergan ramziy bahosi o'z aksini topgan. Vodiya joylashgan qadamjo nomlari ko'pincha kasallikdan xalos bo'lish, shifobaxsh kuch, avliyo va tabib shaxslar, shuningdek muqaddas narsa va qurollar bilan bog'liq holda nomlangan. Bu holat vodiya aholisi ongida diniy e'tiqodlar bilan xalq tabobati uyg'unlashganini ko'rsatadi. Mazkur ishda ana shu qadamjo nomlari lingvistik, madaniy va semantik jihatdan tahlil qilinadi. Mazkur hududda qadamjolarining vujudga kelishiga bir qancha omillar ta'sir ko'rsatgan. Eng avvalo, hududda qadimdan aholi zich joylashganligi, dehqonchilik va hunarmandchilik rivojlanganligi, shuningdek islom dini keng tarqalganligi bunga asosiy sabab bo'lgan. Qadamjolar ko'pincha mashhur avliyo yoki tabib shaxs nomi, shifobaxsh buloq yoki tabiiy manba, muqaddas tosh, daraxt yoki buyum, xalq orasida mashhur bo'lgan afsonaviy voqea asosida nomlangan. Bu nomlar avloddan avlodga og'zaki ravishda o'tib kelib, hozirgi kungacha saqlanib qolgan. Ana shunday ziyoratgohlardan biri Andijon viloyatida joylashgan “Bibi seshanba” ziyoratgohidir. Ma'lumotlarga qaraganda, ushbu qadamjo bundan 200 yil avval tashkil etilgan. “Ziyoratgoh nomining kelib chiqishi o'zbek va tojik xalqlarining afsonaviy siymosi Bibi Seshanba nomi bilan aloqador.” [Jalilov, 2009:5]. “Ushbu obraz oilaviy baxt va tikuvchilik, ip-yigiruv kabi hunarlarning homiysi, ayollarning himoyachisi sifatida talqin etiladi. Bu obraz yana boshqa xalqlarda ham tilga olinadi. Masalan, turklarda – Parshanba pari, afg'onlarda – Bibi Charxi, Bibi Risinda, uyg'urlarda esa Seshamba Bibi kabi nomlari qo'llanib keladi” [Yusupov, 2015:5]. Bu yerga ziyoratgoh atrofida buloq suvlaridan shifo olish uchun keladilar. Ziyoratgoh atrofida ko'k buloq, so'ngal buloq, yara-chaqa buloqlari shifobaxshdir. Ziyoratgoh qadamjodir, insonlar har chorshanba kuni bu yerga kelib kokil kestiradi, hamda farzand ko'rmaganlar o'zlariga farzand tilaydilar. Mazkur qadamjo nomining lingvistik xususiyatlariga to'xtalib o'tadigan



bo'lsak, “Bibi Seshanba” nomi struktur jihatdan ikki mustaqil leksik birlikdan tashkil topgan: bibi va seshanba. O'zbek tilining izohli lug'atida bibi so'zi onaning yoki otaning onasi; xotin qizlar ismining old yoki orqa qismida kelib, qo'shma ismlarni hosil qiluvchi birlik sifatida ko'rsatilgan. Bundan tashqari, ushbu so'z hurmat yuzasidan, odatda keksa ayollar ismiga qo'shib ishlatilib, “hurmatli ayol”, “muhtaram ona”, “ulug' ayol” ma'nosida qo'llanib, asosan, hurmat va ehtirom ifodalovchi nominativ birlik sifatida qo'llanadi. Ko'plab ziyoratgoh nomlarida “bibi” komponentining uchrashi uning muqaddaslik, e'zoz va himoya ramzi sifatida mustahkamlanganidan dalolat beradi. Seshanba esa hafta kunlaridan birining nomi bo'lib, turkiy va forsiy madaniy qatlamda muayyan marosim va urf-odatlar bilan bog'langan. Xalq e'tiqodida ayrim kunlar maxsus diniy yoki marosimiy ahamiyat kasb etgan bo'lib, seshanba kuni ayollar bilan bog'liq marosimlar o'tkaziladigan muhim vaqt sifatida talqin qilinadi. Grammatik jihatdan mazkur nom ot + ot qolipida tuzilgan bo'lib, hozirda sintaktik jihatdan ajralmas, turg'un nom birikmasi hisoblanadi. Bu birikma oddiy nominatsiyadan chiqib, maxsus onomastik birlik darajasiga yetgan. “Bibi Seshanba” nomi qo'shimchasiz, o'zgarmas shaklda qo'llanadi va ko'plik, egalik yoki kelishik qo'shimchalarini qabul qilmaydi. Bu holat uning turg'un nom sifatida mustahkamlanganini ko'rsatadi. Uslubiy jihatdan esa mazkur nom rasmiy, ilmiy matnlarda ham, og'zaki nutqda ham bir xil semantik yukni saqlab qoladi.

Lingvokulturologik nuqtayi nazardan “Bibi Seshanba” nomi xalqning diniy-folklor tasavvurlari bilan bevosita bog'liq madaniy belgi hisoblanadi. Ushbu nom ostida shakllangan obraz ayollarga xos muammolar — oilaviy totuvlik, farzand tilash, sog'liq va ro'zg'or barakasi bilan aloqador e'tiqodlarni mujassamlashtiradi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, “Bibi” obrazi xalq ongida ona, homiy, yordam beruvchi muqaddas ayol timsolida shakllangan bo'lsa, “seshanba” komponenti marosimning aniq vaqt bilan bog'liqligini bildiradi. Bu esa nomning faqat lingvistik emas, balki marosimiy-funksional vazifaga ham ega ekanini ifodalaydi. Mazkur nom xalq e'tiqodining sinkretik xususiyatini namoyon etadi, ya'ni unda qadimgi ona-kult, mahalliy marosimlar va islomdan keyingi xalqona diniy qarashlar uyg'unlashgan. Natijada “Bibi Seshanba” ziyoratgohi nomi madaniy xotira va ijtimoiy tajribaning til orqali ifodalanish shakliga aylangan. Yuqorudagi ma'lumotlar asosida ayta olamizki, “Bibi Seshanba” ziyoratgohining nomi lingvistik jihatdan etimologik qatlamga ega bo'lgan, grammatik jihatdan turg'unlashgan onomastik birlikdir. Lingvokulturologik jihatdan esa u xalq e'tiqodi, ayollar bilan bog'liq marosimlar va madaniy xotiraning muhim ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur nom til va madaniyat o'zaro uyg'unligining yorqin namunasi hisoblanadi. Farg'ona vodiysidagi kasallik, shifo, narsa-qurol bilan bog'liq qadamjo nomlari xalqning ko'p asrlik tajribasi, e'tiqodi va madaniy merosining mahsulidir. Bu qadamjolar nafaqat diniy ziyorat maskanlari, balki xalqning kasallikni idrok etish va shifo topish usullarini aks ettiruvchi muhim toponimik birliklardir. Ularni o'rganish Farg'ona



vodiysi tarixini, xalq tafakkurini va milliy madaniyatini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. Jalilov S. Bibiseshanba //Xolis. – 2009.
2. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent,2006.
3. Yusupov D. “Bibiseshanba ziyoratgohi” // Iqbol. – 2015.
4. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. – Toshkent: Universitet, 2000.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.